

O'QUVCHILARDAGI TIPIK ORFOGRAFIK XATOLARNI ANIQLASH

Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15677445>

Annotatsiya. Ushbu maqolada orfografik xatolarni tahlil qilish va ularni tuzatishning ahamiyati, xatolarning o'quvchilarning savodxonlik darajasi va kelajakdagi muvaffaqiyatiga ta'siri, tipik xatolarni aniqlash va ularning sabablarini o'rganish hamda xatolarni oldini olish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berish haqida fikr yuritilgan.

Kirish so'zlar: tipik xatolar, yozuv, morfologik xatolar, axborot manbalari, talaffuz, sintaktik xatolar, grafik xatolar.

O'quvchilar quyidagicha xatoliklarga yo'l qo'yishlari mumkin. Orfografik xatolarning turlari: Fonetik xatolar: talaffuz bilan yozuv mos kelmagan hollarda yuzaga keladi. (Masalan, "uyuchilar" o'rniga "uyushchalar"). Morfologik xatolar: so'zning qo'shimcha yoki shakli noto'g'ri qo'llaniladi. (Masalan, "kitoblarni" o'rniga "kitoblarni"). Grafik xatolar: harflar yoki belgilarni noto'g'ri ishlatish. (Masalan, "tog'" o'rniga "to'g'"). Sintaktik xatolar: so'zlarning birikishida o'tkaziladigan xatolar. Mana endi o'zimizga savol berishimiz mumkinki, - O'quvchilar necha bunday xatoliklarga yo'l qo'yishmoqdalar?. Xatoliklar sabablarini tahlil qilamiz. Masalan, yozuv va talaffuzning murakkabligi. Lug'at boyligi va grammatik bilimlarning yetishmasligi. Ta'lim tizimidagi yondashuvlar va metodik kamchiliklar. Nutq madaniyati va axborot manbalari ta'siri (internet, ijtimoiy tarmoqlar). Bo'lajak pedagog kadrlarni vazifasi o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlash. Buni qanday yo'lga qo'yishimiz mumkin? Masalan, sinov ishlari va diktantlar tahlili, o'quvchilarning erkin matnlarini tekshirish, anketa va intervyular o'tkazish orqali sabablarni aniqlash. Bu usullar o'rqali o'quvchilarni qay bir tipda oqsayotganligini aniqlashimiz mumkin. Bo'lajak pedagoglar uchun quyidagi tavsiyalar ham keltiriladi. Orfografik savodxonlikni oshirish bo'yicha usullar: maxsus orfografik o'yinlar va mashqlarni qo'llash, lug'at va ma'lumotnomalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, texnologiyalar yordamida (masalan, onlayn platformalar) o'quvchilarni rag'batlantirish, xatolarni tuzatishda konstruktiv yondashuvni qo'llash, har bir o'quvchining xatolar tahlili asosida individual yondashuv ishlab chiqish, ko'rgazmali materiallardan foydalanish va muntazam qayta mashq qilish. Diktantlar va yozma ishlar tahlilini doimo o'qituvchi kuzatib, tekshirib borishi kerak. Orfografik xatolarni aniqlash uchun avtomatlashtirilgan platformalardan foydalanish (masalan, grammatikani tekshirish dasturlari). Orfografik xatolarning psixologik va pedagogik sabablarini va o'quvchining e'tibor darajasi aniqlash zarur. Yo'qsa konsentratsiya yetishmasligi yoki diqqatning tez chalg'ishi, tilni o'rganishga motivatsiyaning pastligi, ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarning yetishmasligi ko'plab salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O'quvchilar orasidagi turli individual o'ziga xosliklar (masalan, disleksiya kabi o'quv qiyinchiliklari), bosim va qo'rquv tufayli xato qilishdan xavotirlanish, o'qitish metodikasi va xatolarni oldini olish integrativ yondashuv ba'zida ijobiy natija kasb etadi. Orfografiyani boshqa fanlar (adabiyot, tarix, texnologiya) bilan bog'lab o'qitish ham mumkin. O'quvchilarning orfografik ko'nikmalarini mustahkamlash uchun muntazam mashqlar barartirish muhim.

O'yin va interaktiv texnologiyalarni qo'llash (masalan, orfografik krossvordlar yoki mobil ilovalar), xatolarni tizimli tahlil qilish, o'qituvchilar har bir o'quvchi uchun shaxsiy "xato profili"ni tuzib, bu orqali ta'lim jarayonini moslashtirish ham bu xatolarni qilmaslikda ustunlik beradi. Milliy o'ziga xoslik va orfografiya O'zbek tilining murakkab jihatlari masalan, bir-biriga yaqin tovushli so'zlarning imlosi (masalan, "qarz" va "qars"), yozuv va talaffuzdagi farqlar ("qilmoq" va "qiladilar"), mahalliy shevalar o'quvchilarning yozuv qoidalariga moslashuviga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. O'quvchilar orasida anketa o'tkazib, ularning o'z xatolariga munosabatini o'rganish, innovatsion yondashuvlar Sun'iy intellekt va dasturiy vositalar, o'quvchilarga grammatik tekshiruvchilarni o'rgatish va ulardan foydalanishni tavsiya etish, maxsus orfografik trening dasturlari yaratish, o'quvchilarni orfografiyaga qiziqtirish uchun raqamli o'yinlar va ilovalarni qo'llash ham o'z o'rnida ta'limda yutuq beradi.

O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi. Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To'g'ri yozuv — maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, so'zni uslubiy aniq qo'llashni ham o'z ichiga oladi.

Imloviy malaka murakkab malaka bo'lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so'zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya'ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o'rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog'liq. Imloviy malaka o'z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi).

Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi.

Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlariga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, orfografiyani o'rgatishda, grammatikani o'rgatish kabi, o'quvchi larning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazarivani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik rnavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amai qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi.

Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan soʻzlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini taʼkidlaydi.

Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, soʻz yasallishiga oid materiallarni maʼlum darajada bilmasdan turib oʻzlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalarini uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlangʻich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos boʻladigan grammatik nazariyaga bogʻliq holda oʻrganiladi. Masalan, shakl yasovchi qoʻshimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar „Ot“, „Sifat“, „Son“, „Kishilik olmoshlari“, „Feʼl mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bogʻliq holda oʻrganishni taʼminlaydi.

Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan soʻng oʻrganiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi oʻrganilgach, kelishik qoʻshimchalarining yozilishi haqidagi koʻnikma shakllantiriladi. „Sifat“ mavzusini oʻrganish -roq qoʻshimchasining va qip-qizil, yum-yumaloq kabi sifatlarning yozilishiga, „Feʼl mavzusini oʻrganish boʻlishsizlik (-ma) va oʻtgan zamon (-di) qoʻshimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini oʻrgatishga bunday yondashish boshlangʻich sinflarda barcha orfografik materiallarni oʻrganishda tipik hisoblanadi.

Imlo qoidalarini ustida ishlash — murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, oʻquvchilarning qoida ifodasini oʻrganib olishlari, qoidani yozuv tajribasiga tatbiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Qoida mohiyatini ochish qoida soʻzning qaysi qismini, qaysi soʻz turkumi yoki grammatik shaklni yozishni boshqarishini, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. Oʻquvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda oʻqituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi.

Qoida ifodasi ustida darslik boʻyicha ishlanadi. Bunda oʻquvchilarning qoida tarkibini anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga boʻlinadi (Aslida oʻquvchilar bu vazifani mashq jarayonidayoq bajarib qoʻyadilar). Oʻquvchilar oʻrganilgan qoidaga misol aytish va xilma-xil mashqlarni bajarish yoʻli bilan uni yangi til materialiga, yaʼni yozuv tajribasiga tatbiq etadilar.

Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab farqlanadi. Masalan, boʻlishsizlik qoʻshimchasi (-ma) ning yozilishini deduktiv yoʻl bilan oʻrgatish mumkin. Joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi (-ga) ning oxiri -k bilan tugagan otlarga -ka, -q bilan tugagan otlarga -qa shaklida qoʻshilishi haqidagi qoidani indukativ yoʻl bilan tushuntirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, xatolarni tahlil qilishning ahamiyati va ularning bartaraf etish yoʻllarining samaradorligi taʼlim samaradorligiga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Orfografik savodxonlikni oshirish uchun taʼlim tizimiga zaruriy takliflar kiritish oʻz qoʻlimizda deb hisoblayman, Har bir boʻlajak pedagog buning uchun avvalo oʻz ustida ishlashi zarur. Oʻquvchilarga bilim berishda aniq Manbalar va havolalardan foydalanish kerak. Masalan, oʻzbek tili grammatikasiga oid qoʻllanmalar, pedagogik va psixologik tadqiqotlar natijalari, ilmiy maqolalar va internet resurslar.

REFERENCES

1. Abdullayeva Q va boshqalar, "Savod oʻrganish darslari", Toshkent 1996

2. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): [K. Qosimova], S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: «NOSHIR», - 2009.
3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: "O'qituvchi", 1992.
4. [www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) materiallari
5. www.kitob.uz